

MA'MURIY-HUQUQIY NORMALAR VA MA'MURIY-HUQUQIY
MUNOSABATLARNING HUQUQ FANLARINI O'RGANISHDA TUTGAN
O'RGAN

IIV Surxondaryo akademik litseyi
Huquqshunoslik fani
o'qituvchi
Ko'chkinova Adolat
Gulmurod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola huquq normalari, ma'muriy huquq normalari, huquqiy munosabatlar, ma'muriy huquqiy munosabatlar, Ma'muriy huquq normalarining mazmuni, turlari, tuzilishiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Norma, ma'muriy, gipoteziya, dispozetsiya, sanksiya, tuzilish, huquq normasi, huquq manbai, imperative, yuridik fakt, farmon.

Huquq sohalarida huquq normasi xalqaro huquq normalari, konstitutsiyaviy-huquqiy normalar, fuqaroviy-huquqiy normalar, ma'muriy-huquqiy normalar, jinoyat-huquqiy normalar va boshqa shu singari turlarga ajratilib o'rganiladi. Norma so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "me'yor", "o'lchov", "qoida", "qonun" ma'nolarini anglatib, umum tomonidan tan olingan, barcha uchun majburiy sanalgan, qonun kuchiga kirgan tartib qoidalaridir.

Ma'muriy-huquqiy normalar muayyan xatti-harakat qoidalaridan iborat bo'lib, davlat tomonidan o'rnatilgan va bajarilishi alohida belgilangan maxsus davlat vositalari bilan ta'minlanadigan me'yoriy xulq-atvor qoidalaridir.

Ma'muriy-huquqiy normalar boshqa ijtimoiy normalar (axloq normalari va h.k.)dan farqlanib, unga rioya qilish majburiy hisoblanadi. Rioya qilmaslik yoki ma'lum bir huquq normasi buzilgan hollarda, davlatning yuridik majburlov (intizomiy, ma'muriy, moddiy, jinoiy javobgarlik) choralari qo'llaniladi.

Huquq normasi – davlat tomonidan belgilangan va ma’qullangan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvor qoidalarini hisoblanadi.

Ma’muriy-huquqiy normalar – boshqa huquq tarmoqlarining normalaridan farqli ravishda, davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va amalga oshirish hamda boshqaruv jarayonida amal qilishi shart bo‘lgan xatti-harakatlar yig‘indisini tashkil etadi.

Ma’muriy-huquqiy normalar quyidagi masalalarni tartibga solishga qaratilgan bo‘ladi:

1) davlat boshqaruvi sohasidagi vakolatli organlar faoliyatini, ya’ni ularning o‘z vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini bevosita amalga oshirishi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar;

2) tashkilotning ichki munosabatlari, ya’ni tizimda davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar;

3) ma’muriy sud ishlarini yuritish va tashkil etish bilan bog‘liq munosabatlar

\ Ma’muriy-huquqiy normalar davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan birga davlat tomonidan o‘rnatiladigan va qo‘riqlanadigan umumiy xulq-atvor qoidalarini ham o‘z ichiga oladi.

Ma’muriy-huquqiy normalar turli mezonlar, ya’ni tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari, vazifasi, funksiyalariga va boshqa jihatlariga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi:

moddiy ma’muriy-huquqiy normalar – ma’muriy huquq bilan tartibga solinadigan boshqaruvga oid ijtimoiy munosabat qatnashchilarining huquqlari va majburiyatlarini, ularning javobgarligi, ya’ni ma’muriy-huquqiy holatini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatlari doirasida vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi hamda yo‘naltiradi, ularning faoliyati ustidan

nazoratni ta'minlaydi. Mazkur norma moddiy ma'muriy-huquqiy norma bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatini belgilab beradi;

protsessual ma'muriy-huquqiy normalar – davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan protsessual masalalarni tartibga soladi. Masalan, vakolatli organlar tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklarga doir ishlarni yuritish tartibini va ish bo'yicha kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonini belgilaydi;

vakolat beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar – davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar subyektlariga huquqiy normalar doirasida ixtiyoriy ravishda harakat qilishni nazarda tutadi. Masalan, qonunchilik normalariga muvofiq, fuqarolarning davlat organlariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat etish huquqini amalga oshirishi;

taqiqlovchi ma'muriy-huquqiy normalar – ushbu normalar u yoki bu xatti-harakatlarni bajarishning taqiqlanishini nazarda tutadi. Masalan, fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish yoki xizmat vazifasini bajarish munosabati bilan ma'lum axborotlarni oshkor qilish taqiqlanadi;

majburiyat yuklovchi ma'muriy-huquqiy normalar – qonun normalariga muvofiq, shaxs qandaydir xatti-harakatlarni amalga oshirishga majbur bo'ladi. Masalan, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr- qimmatini hurmat qilishga, belgilangan jarimalarni o'z vaqtida to'lashga majbur.

Ma'muriy-huquqiy normalar O'zbekiston Respublikasida bo'lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga hamda chet el yuridik shaxslariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ma'muriy-huquqiy normalar majburiyat yuklash shakliga ko'ra, avvalo, imperativ (qat'iy) va tavsiyaviy ma'muriy-huquqiy normalarga bo'linadi.

Imperativ normalar subyektlar xulq-atvorini bevosita belgilovchi qoidalardan iborat bo'lib, ular mazkur huquqiy munosabat ishtirokchilarining kelishuviga binoan, boshqa yurish-turish qoidalari bilan almashtirilishi mumkin emas.

Tavsiyaviy normalar ma'muriy huquq subyektlariga u yoki bu xatti- harakatlarni bajarish maqsadga muvofiqligi xususida beriladigan tavsiyalardan iborat.

Huquqiy munosabat subyektlariga norma doirasida o'z huquqlari va burchlarini mustaqil belgilash imkoniyatini beruvchi dispozitiv normalarga kelsak, ular ma'muriy qonunchilik hujjatlarida nisbatan kam uchraydi. Bu hol ma'muriy huquq sohasi – davlat boshqaruvining xususiyati bilan belgilanadi.

Ma'muriy-huquqiy normalar makonda (hududda) amal qilishiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining butun hududida, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida amal qiladi. Ayrim vaqtlarda ko'rsatilgan normalar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitimlarga muvofiq, bir nechta davlatlarning hududida amal qiladi.

Ma'muriy-huquqiy normalar vaqt bo'yicha amal qilishiga ko'ra, muddatli (amal qilish muddati qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda oldindan belgilangan bo'ladi, shuningdek, ma'muriy-huquqiy normalar uzoq muddatli va qisqa muddatli bo'ladi) va muddatsiz (amal qilish muddati oldindan belgilanmagan bo'ladi, matbuotda e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi) normalarga bo'linadi.

Odatda, ma'muriy-huquqiy normalarning amal qilish muddatlari cheklanmaydi. Bu ularning rasmiy darajada o'zgartirilgunga yoki bekor qilingunga qadar amal qilishini anglatadi. Ba'zi hollarda ularning amal qilish muddatlari aniq belgilanishi mumkin, masalan, favqulodda yoki harbiy holat muayyan muddatga belgilanadi.

Ma'muriy-huquqiy normalarning funksiyalari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- tartibga solish funksiyasi, ya'ni davlat boshqaruvi sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni tashkil etish, tartibga solish va takomillashtirishga qaratilgan;

qo‘riqlash va himoya qilish funksiyasi, ya’ni ma’muriy huquq sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning qo‘riqlanishi va himoya qilinishini ta’minlaydi. Ya’ni ma’muriy huquqbuzarlik bilan bog‘liq qilmishlar sodir etilganda ma’muriy huquq tomonidan ma’muriy ta’sir ko‘rsatish choralari amalga oshiriladi.

Ma’muriy-huquqiy normaning tuzilishi – bu normaning ichki strukturasi, uning tarkibiy qismlari, elementlari o‘zaro aloqasining muayyan tartibi, ularning o‘zaro aloqadorligi tushuniladi. Ma’muriy- huquqiy normaning tarkibiy qismlari gipoteza, dispozitsiya va sanksiyadan iborat.

Ma’muriy-huquqiy normaning gipotezasi ma’muriy-huquqiy normaning bir qismi sifatida uni amalga tatbiq etishning haqiqiy shartlarini belgilaydi. Gipotezada yuridik fakt, normani amalga kiritish, uning dispozitsiyasini hayotga tatbiq etish shart-sharoitlari (masalan, ma’muriy- huquqiy javobgarlikka tortish shartlari) ko‘rsatiladi. Gipoteza mutlaq- muayyan yoki nisbiy-muayyan bo‘lishi mumkin.

Mutlaq-muayyan gipoteza muayyan vaziyatda qo‘llaniladigan qoidadir. Masalan, biror xatti-harakat uchun jarima solinsa, bu jarima belgilangan muddatda undirib olinishi kerak. Agar bu muddat o‘tib ketsa, ma’muriy jarimani undirib olish mumkin emas.

Nisbiy-muayyan gipotezada biror holatga umumiy tavsif beriladi. Ma’muriy-huquqiy normalar, ko‘pincha, nisbiy-muayyan gipotezadan iborat bo‘ladi.

Ma’muriy-huquqiy normaning dispozitsiyasi yuridik normaning tarkibiy elementi bo‘lib, unda norma bilan belgilangan xulq-atvor qoidasi, taraflarning huquqlari va majburiyatlari o‘rnatiladi. Ifodalash shakliga ko‘ra, ma’muriy-huquqiy normalarning majburiyat yuklovchi, vakolat beruvchi yoki taqiqlovchi dispozitsiyalari farqlanadi.

Majburiyat yuklovchi dispozitsiyalar subyektlarga muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklaydi, ularga joiz xulq-atvorning u yoki bu ko‘rinishini buyuradi. Masalan, Yo‘l harakati qoidalarining tegishli bandiga muvofiq, yo‘l harakati qatnashchilari harakatlanish vaqtida boshqa qatnashchilarning harakatlanishiga xavf tug‘dirmasliklari lozim.

Vakolat beruvchi dispozitsiyalar, odatda, davlat boshqaruvi subyektlarining funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi. Masalan, yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonunning 3-bobida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari belgilangan bo‘lib, shunga muvofiq ma‘lum bir vazifalarni amalga oshiradi.

Taqiqlovchi dispozitsiya muayyan g‘ayriqonuniy qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) sodir etishni man etadi. Taqiqlovchi dispozitsiya xulq- atvorning qonunga muvofiq huquqbuzarlik hisoblanadigan muayyan ko‘rinishidan o‘zini tiyishni talab qiladi. Huquqlar va majburiyatlar bir vaqtda ta‘riflangan dispozitsiyalar ma‘muriy huquq normalarida nisbatan kam uchraydi.

Ma‘muriy-huquqiy normaning sanksiyasi ma‘muriy-huquqiy normaning elementi sifatida huquqbuzarga nisbatan ko‘riladigan ta‘sir choralarini aks ettiradi. Bunda har qanday ma‘muriy ta‘sir emas, balki huquqbuzarlik munosabati bilan qo‘llanilishi normada belgilangan ta‘sirgina nazarda tutiladi. Ma‘muriy-huquqiy normalarni buzganlik uchun qo‘llaniladigan ma‘muriy-huquqiy sanksiyalar O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida belgilab qo‘yilgan.

Huquq manbai deganda, huquq normalarini ifoda etish, rasmiylashtirish va mustahkamlash shakli tushuniladi.

Ma‘muriy huquq manbalari (shakllari) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; 2) O‘zbekiston Respublikasining, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunchilik hujjatlari; 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari; 4) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari; 5) Respublika vazirliklarining, ijro etuvchi hokimiyat boshqa organlarining, mahalliy hokimlarning normativ hujjatlari; 6) Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish vakillik va ijroiya organlarining normativ hujjatlari.

Ma‘muriy-huquqiy munosabatlarning mazmuni va turlar

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar huquqiy munosabatlarning, ya'ni boshqaruv sohasidagi huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning alohida turidir. Har qanday huquqiy munosabat kabi ma'muriy-huquqiy munosabat:

birinchidan, ijtimoiy munosabatga huquq normasining tartibga soluvchi va unga yuridik tus beruvchi ta'siri mahsulidir;

ikkinchidan, huquqiy munosabat tomonlarining harakatlari (xulq- atvori)ni huquq normasi bilan tartibga soladi;

uchinchidan, huquqiy munosabat tomonlarining huquqlari va majburiyatlarini huquqiy norma bilan belgilangan tartibda me'yorlaydi va mutanosiblashtiradi;

to'rtinchidan, huquq normasi talablariga javob bermaydigan xulq- atvor uchun tomonlarning yuridik javobgarligini belgilaydi.

Shunday qilib, ma'muriy-huquqiy munosabat ikki tomonlama xususiyat kasb etadi, ya'ni bir subyekt huquqlariga boshqa subyektning majburiyatlari mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin.

Ma'muriy-huquqiy munosabatni davlat boshqaruvi sohasida vujudga keluvchi, ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solingan boshqaruvga oid ijtimoiy munosabat sifatida tavsiflash mumkin.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar – bu davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keluvchi, ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan boshqaruvga oid ijtimoiy munosabat turidir.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning elementlari sifatida subyekt, obyekt va yuridik faktlarni keltirish mumkin.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyektlari – davlat boshqaruvi sohasidagi subyektlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, davlat idoralari xodimlari, fuqarolar, chet elliklar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lib, ularga ma'lum huquqlar va majburiyatlar yuklatiladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning obyektlari – davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlarining huquq va majburiyatlari yo'naltirilgan obyekt mazkur munosabatlar obyekti

hisoblanadi. Davlat boshqaruv sohasidagi subyektlarning xulq-atvori, xatti-harakatlari ma'muriy-huquqiy munosabatlar obyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Yuridik faktlar – qonunda nazarda tutilgan, huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi uchun asos bo'ladi.

Yuridik faktlar shaxslar va organlarning harakatlari va hodisalari natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Harakatlar huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi subyektlarning o'z xohish-irodasini faol ifoda etishidir.

Huquq normalari bilan o'zaro munosabatlarning xususiyatiga qarab, harakatlar qonuniy va qonunga xilof (g'ayriqonuniy) harakatlar bo'ladi.

Qonuniy harakat – ma'muriy-huquqiy normalar talablariga muvofiq xolda bajarilgan harakat.

Qonunga xilof (g'ayriqonuniy) harakat – ma'muriy-huquqiy normalarga zid bo'lgan harakat.

Hodisalar – huquqiy oqibatlarga sabab bo'luvchi, ammo kishilarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda yuz beruvchi yuridik faktlardir.

Masalan, insonning tug'ilishi, ma'lum bir yoshga yetishi bilan huquqlari paydo bo'lishi singari.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar o'z mazmuniga, subyektlar huquq va majburiyatlarining o'zaro nisbatiga, ularni vujudga keltiruvchi yuridik faktlarning xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar mazmun jihatdan moddiy va protsessual turlarga bo'linadi.

Moddiy ma'muriy-huquqiy munosabatlar deganda, boshqaruv sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning moddiy ma'muriy- huquqiy normalar bilan tartibga solinishi tushuniladi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar esa boshqaruv sohasida individual ishlar hal qilinishi tufayli yuzaga keladigan va ma'muriy- huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlardir.

Moddiy va protsessual ma'muriy-huquqiy munosabatlarning o'zaro aloqasi shundan iboratki, moddiy munosabatlar protsessual munosabatlar vositasida amalga oshiriladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari huquq va majburiyatlarining o'zaro nisbatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: bir ishtirokchining boshqasiga bo'ysunishida namoyon bo'luvchi munosabatlar □ vertikal huquqiy munosabatlar va bir-biriga bo'ysunmaydigan ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari □ gorizontal huquqiy munosabatlar.

Vertikal ma'muriy-huquqiy munosabatlar davlat boshqaruv sohasida bir munosabat ishtirokchilarining boshqasiga bo'ysunishi doirasidagi aloqalar tushuniladi. Ijro etuvchi hokimiyatning yuqori turuvchi va quyi turuvchi organlari o'rtasida, ijro etuvchi hokimiyat organlari va bo'ysunuvchi tashkilotlar o'rtasida, ijro etuvchi hokimiyat organlarining biri boshqasiga bo'ysunuvchi tuzilmalari o'rtasida, davlat xizmati xodimlari o'rtasida boshqaruv subyekti va obyekti o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi. Bu jarayonda davlat organlari va fuqarolar o'rtasida fuqarolarning boshqaruv sohasidagi majburiyatlarini amalga oshirish (jamoat tartibi qoidalariga amal qilish, vatan oldidagi harbiy majburiyatni bajarish va shu kabi) borasidagi huquqiy munosabatlari, odatda, vertikal munosabatlar hisoblanadi, chunki fuqaroga uning majburiyatlarini bajarish qismida ijro etuvchi hokimiyat organining boshqaruv vakolatlari tatbiq etiladi.

Gorizontal ma'muriy-huquqiy munosabatlar bir-biriga bo'ysunmaydigan subyektlar o'rtasida bo'ladi. Bunday munosabatlar ijro etuvchi hokimiyatning bir-biriga bo'ysunmaydigan organlari, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar o'rtasida ular boshqaruv

sohasidagi o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlari munosabati bilan (masalan, fuqaro ijro etuvchi hokimiyat organiga shikoyat bilan murojaat etganda, jamoat tashkiloti ro'yxatdan o'tkazilganda va shu kabi) vujudga keladi.

Bevosita boshqaruv ta'siri ko'rsatilishiga sabab bo'lgan munosabatlar. Ular vertikal munosabatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ya'ni bir taraflama yuridik boshqaruv qarorini qabul qilish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratishga mo'ljallangan. Ushbu munosabatlar bir huquqiy darajada turgan ijro etuvchi organlar (mansabdor shaxslar) o'rtasida yuzaga keluvchi, masalan, boshqaruvning qo'shma normativ hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish (masalan, ikki vazirlik o'rtasida); birgalikdagi boshqaruv harakatlarini muvofiqlashtirish; qo'shma majlislar (masalan, ikki vazirlik hay'atlarining majlislarini) o'tkazish; idoralararo maslahat yoki muvofiqlashtirish kengashlarini tuzish bilan bog'liq bo'lgan aloqalar; bular ijro etuvchi hokimiyat organlari va kasaba uyushmalari o'rtasidagi mazkur uyushmalarning qonuniy manfaatlarini qondirish borasidagi munosabatlarni o'z ichina oladi.

Mazkur munosabatlar jarayoni va natijasida normativ-huquqiy hujjatlarni ijro etish bo'yicha birgalikda chora-tadbirlar (ma'lum bir idoralararo komissiyalar tuzish, qo'shma tekshiruvlar o'tkazish va h.k.) ishlab chiqiladi. Munosabatlarning bu ikki guruhi ma'muriy protseduraga oid (belgilangan tartib-taomil asosidagi) munosabatlar jumlasiga kiradi.

Taraflari teng huquqli bo'lgan ma'muriy-protsessual munosabatlar (masalan, fuqarolarning arizalari yoki shikoyatlari bo'yicha, ma'muriy huquqbuzarliklarga doir ishlar bo'yicha ish yuritish doirasidagi munosabatlar). Bu munosabatlarning mazmuni ma'muriy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish bilan belgilanadi.

Turli bitimlar ko'rinishidagi ma'muriy-shartnoma munosabatlari (masalan, u yoki bu lavozimga qabul qilish to'g'risidagi dastlabki bitim). Bitimlar ijro etuvchi hokimiyat subyektlari o'rtasida ham tuzilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ma'muriy huquq: IIV akademik litseylari uchun darslik / R.A. Xatamov, M.Z. Ziyodullayev, Dj.X. Yuldashev va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022.
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent, "Yuridik adabiyotlar publish", 2022, 147-bet.
3. Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi .Toshkent, O'zbekiston, 2022, 49-бет.
4. [https:// lex. Uzto](https://lex.uzto)
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent 2023.